



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/3 (12)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
ZOXIDOV Azamat Azamjonovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*
ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*
TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Сандова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Зокидов Азамат Азамjonovich – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*
Абдусаматов Хасанбой Усмонjon угли – *доктор психологических наук.*
Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Zokhidov Azamat Azamjonovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*
Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

MENEJMENT

Иноятова С.Р. Сравнительный анализ эффективности тренинговой программы по совершенствованию профессионально-важных качеств у лидеров молодежи.....4

SOTSILOGIYA

Butayeva X.Y. Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni oilaviy bolalar uyi sharoitiga moslashtirishning sotsiologik xususiyatlari10

Kadirova Z.A., Gaziyeva S.S. Intellektual migratsiyani tadqiq etishning konseptual asoslari14

Norboyeva S.M. Talabalarda ma’naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda gender tenglik va farqlarni hisobga olishning nazariy asoslari.....21

OILA VA JAMIYAT

Xatamov B.Q. O‘smirlar ijtimoiylashuvida virtual olam vositalaridan foydalanishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv mezonlari26

Rahimova M. Oilaga kelinning moslashish jarayonini psixologik jihatdan tadqiq etish32

Sadullayev Sh. Ayollarda oila-ish balansi ko‘rsatkichini shakllantirishning metodologik jihatlari37

PSIXOLOGIYA

Султанова А.А. Стоит ли замалчивать о проблемах суицида в Узбекистане?44

Ismaylova R. Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan ishlashda kognitiv xulq-atvor terapiyasi texnikalarining imkoniyatlari51

Sharapova D.B. ‘Housewife syndrome’ as a psychological problem57

Axmedova D.O. Migranlarning yangi sharoitlarga ijtimoiy-psixologik moslashuvining nazariy tahlili68

Nurbayeva X.U. Gender identifikatsiyaning etnomadaniy xususiyatlari74

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Ochilova B.M. Ta’lim – gender tengligini ta’minlashda kuchli vosita.....79

Djoldasova S. Ayollarning biznesdagi huquq va imkoniyatlarini kengaytiruvchi biznes modellar88

Komilova X.T. Xotin-qizlarni ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyati mazmuni va tahlil.....96

Suvankulov M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ichki ishlar organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga oid normalari tahlili.....102

Nurdinova Sh. Migratsiyaning feminizatsiyalashuvi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ta’siri108

Nurmatova N.U. Vitagen ta’lim texnologiyasi asosida o‘quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish115



Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi,
p.f.b.f.d (PhD)
e-mail: sarvinoz1080@mail.ru

TALABALARDA MA'NAVİY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA GENDER TENGLIK VA FARQLARNI HISOBGA OLISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida gender tadqiqotlarining o'rganilishi bo'lg'usi mutaxassislar tafakkurining dunyodagi eng yangi tahliliy yutuqlar asosida rivojlanganiga emas, balki mazkur sohaning O'zbekiston ilm-fanida yanada rivojlanishiga yordam berishi, shubhasiz. Maqolada talabalarda ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda gender tenglik va farqlar tushunchasiga nisbatan yondashuvlar tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: gender, gender psixologiyasi, jins, gender farqlar, gender o'xshashlik, gender o'lchov.

Аннотация. Нет сомнений в том, что изучение гендерных исследований в высших учебных заведениях нашей республики не только поможет мышлению будущих специалистов развиваться на основе новейших аналитических достижений в мире, но и поможет дальнейшему развитию областей науки Узбекистана. В статье анализируются подходы к понятию гендерного равенства и различия в развитии духовных компетенций у студентов.

Ключевые слова: гендер, гендерная психология, пол, гендерные различия, гендерное сходство, гендерное измерение.

Annotation. There is no doubt that the study of gender studies in the higher educational institutions of our republic will not only help the thinking of future experts to develop on the basis of the latest analytical achievements in the world, but also help the further development of this field in the science of Uzbekistan. The article analyzes the approaches to the concept of gender equality and differences in the development of spiritual competencies in students.

Keywords: gender, gender psychology, sex, gender differences, gender similarity, gender dimension.

Kirish. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-intellektual hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi kunda o'quv jarayonini shaxsning gender tengligi va farqlari asosida tashkil etish masalasi ham pedagogik jarayon va tadqiqotlarning tarkibiy qismiga aylanishi kerak. Zero, talabalar o'rtasidagi ijtimoiy hamda o'quv munosabatlarini tartibga solish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki o'quv jarayonlari orqali

istiqbolda jamiyatning erkak hamda ayol a'zolari orasidagi ijtimoiy munosabatlar qaror topadi.

Maqsad va uni asoslash. Mamlakatimizda o'tgan asrning oxirlarigagina kelib ta'lim jarayonida gender farqlar va o'xshashliklarni hisobga olish haqidagi fikrlar ilgari surila boshlandi. Aslida gender feministik nazariyaning davomi sifatida vujudga kelgan yondashuvdir. "Feminizm – (fransuzcha "feministe", lotincha "femina" – "ayol") xotin-

qizlarni kamsitishlardan xalos etishni targ'ib etuvchi, ular mavqeyini jamiyatdagi ijtimoiy voqealar hosilasi sifatida o'rganuvchi oqim"dir¹.

"Gender" atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, "jins" ma'nosini bildiradi. Jinsiy munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol o'rganilgan bo'lsa-da, yangi atamaning paydo bo'lishi ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni yuzaga keltirdi. "Gender tarixi", "Gender psixologiyasi", "Falsafaning gender tomonlari", "Gender antropologiyasi", "Gender sotsiologiyasi", keyinchalik esa "Gender pedagogikasi" kabi fan tarmoqlari shakllandi. "Gender" tushunchasi, avvalo, erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi. Mazkur tushuncha yangi ijtimoiy qarashlar va madaniyatga bog'liqdir.

Ta'lim-tarbiya tizimida "gender" tushunchasi faqat qizlarga taalluqli emas, chunki u o'z xususiyatiga ko'ra o'g'il va qiz talabalar orasidagi munosabatlarni tavsiflab beradi. Mazkur tushuncha ta'lim jarayonida o'g'il va qiz talabalarning jinsiy mansubligiga asoslanib taqsimlangan o'quv faoliyatining bajarilishini ifodalaydi. Pedagogikada bunday yondashuvning qaror topishi o'g'il va qiz talabalarga istiqbolda makrosotsiumda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan o'zligini namoyon qilish imkonini beradigan ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

Bugungi kunda pedagogika fanida erishilayotgan eng muhim yutuqlardan biri gender tenglik va farqlar asosida ta'lim berish imkoniyatlarining ochilayotganligidir. Bu hodisa ta'limni gumanitarlashtirish nuqtayi nazaridan ham alohida qimmatga ega. Gender nazariyasi erkaklar va xotin-qizlarga xos xususiyatlarni farqlash masalasiga turli nuqtayi nazardan yondashadi. Jinslar o'rtasidagi asosiy farqlar erkak va ayolning ijtimoiy o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Ushbu farqlar jamiyatda ijtimoiy institutlar, me'yorlar va madaniy qarashlar vositasida rivojlanadi. Bunda gender farqlarning ijtimoiy jihatlari muhim ahamiyatga egadir. Gender tabaqalashtirish jamiyat va ta'lim tizimida ijtimoiy-pedagogik jihatdan insonparvarlik tizimini rivojlantirishga asos bo'ladi.

¹ Хайдарова Х.Р. Фарзандларнинг ўз жинсини англаши // Халқ таълими. – Тошкент, 2003. – № 2. – Б. 52-54.

Genderga oid qarashlarning g'arb mamlakatlarida keng yoyilishida Simone de Bovuar² va Keyt Millett³ tadqiqotlari muhim o'rin tutdi. Simone de Bovuarining "Ikkinchi jins" (1949) kitobida ifodalangan g'oyalar zamonaviy gender nazariyasiga asos bo'lib xizmat qildi. Keyt Millett esa o'zining "Jinsiy siyosat" (1972) kitobini yaratishda de Bovuar qarashlariga tayandi.

R. Xofning "Gender tadqiqotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi"⁴ maqolasi gender nazariyasi va metodikasi shakllanishi xususida yaxlit tasavvur hosil qilishga ko'maklashsa, K.Uest va D.Zimmerman izlanishlari mahsuli bo'lgan "Genderning yaratilishi"⁵, maqolasi esa istiqbolda gender tadqiqotlar bilan mustaqil shug'ullanish uchun zamin hozirlaydi.

Ta'lim tizimi jamiyatda nafaqat texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili, balki ma'naviy va iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois yangi O'zbekistonda ta'lim sohasiga yil sayin katta e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur maqsadni amalga oshirish jarayonida mavjud o'quv dasturlarini yangi pedagogik texnologiya va zamonaviy usullarni qo'llagan holda takomillashtirish eng birinchi vazifa hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, istiqbolda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish nafaqat o'zlashtirish, balki o'g'il va qiz talabalarning har biriga xos bo'lgan tushunish, bilimlarni amaliy qo'llash va ijod ko'nikmalarini aniqlash asosida ham amalga oshirilishi lozim. Bu holat talabalarning bilim darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, yangi sifatga ega bo'lgan aql-zakovat egasini tarbiyalaydi, ya'ni u o'ziga xos shaxsni rivojlantirib, ular ongini o'stirish, shuningdek, dunyoning ijtimoiy, informatsion, texnologik va iqtisodiy o'zgarishlariga moslashishlariga katta yordam beradi.

² Бовуар Де Симона. Второй пол. – Санкт-Петербург, 1997 (1999) // html:file://F:/enter/

³ Миллет К. Теория сексуальной политики // Вопросы философии. – Москва: 1994. - № 9. – С. 23-58.

⁴ Хоф Р. Возникновение и развитие гендерных исследований // Пол, тендер, культура /Под ред. Э.Шоре и К.Хайдер. – Москва, 1999. – С. 23-53 // www.lib.vsu.ru/project/golosary.phtml.

⁵ Уэст К., Зиммерман Д. Создание гендера. Пер. с англ. Е.Здравомысловой /Гендерные тетради. Вып.1. – Санкт-Петербург, 1999 // mhtml:file://F:/enter/

Ilmiy muammoning tavsifi. Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil talqini mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar: «Gender» inglizcha soʻz boʻlib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlari maʼnosini anglatadi.... Bu tushuncha erkaklar va ayollar oʻrtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarning butun majmuini hisobga oladi. Erkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bogʻliqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi⁶.

Jamiyatshunoslar esa, gender tushunchasiga quyidagicha yondashdilar: “Gender” ijtimoiy, biologik holat boʻlib, erkak va ayolning jinsiy munosabatlari majmuasi hisoblanadi⁷. Ruhshunoslar ham gender tushunchasiga oʻziga xos tarzda yondashganlar: “Psixikaning gender asoslari jins va u bilan bogʻliq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik koʻrinishidir”. Pedagogik maʼnoda gender – oʻgʻil va qizlarning murakkab taʼlimiy sotsiomadaniy birligi boʻlib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va emotsional xususiyatlari, oʻquv faoliyatidagi oʻzaro teng va farqli jihatlarni oʻz ichiga oladi.

Eng avvalo, gender tadqiqotlarining vujudga kelishiga sabab boʻlgan masalalarning qoʻyilishini tasavvur etish lozim. Bu jarayonda gender tadqiqotlar xotin-qizlar haqidagi tadqiqotlarning mantiqiy davomi ekanligini taʼkidlash maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtayi nazardan, “jinslar nisbati” tahlilning fundamental kategoriyasi deb tan olinishini talab etish ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy va institutsional shart-sharoitlardan ayri holda muhokama etilishi mumkin emas.

Jins – gender tizimining mavjudligiga ilk bor antropolog Geyl Rubin eʼtibor qaratdi. U jamiyat va jinslar farqlanishini tavsiflashga qaratilgan yangicha yondashuvni ishlab chiqishga harakat qildi. Shunday qilib, biologik jins (sex)ga tur (gender) shaklidagi jins qarama-qarshi qoʻyildi. Ushbu qarama-qarshilik asosida jinsiylikning ijtimoiy-madaniy shakllanishiga eʼtibor qaratish kerak edi.

Madaniy-antropologik tadqiqotlar turli jamiyatlarda erkaklar va ayollarga nisbatan

⁶ Абдуллаева М.Н., Абдурашидов М., Абилов У. ва бошқ. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. Масъул муҳаррир: А.Жалолов. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 384 б.

⁷ Гидденс Энтони. Социология: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма / Тарж. Н.Маматов ва Ж.Бегматов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 848 б.

beriladigan tavsiflarning xilma-xilligiga eʼtibor qaratdi. Bir tomondan, ushbu ishlar shu paytgacha shubhasizdek boʻlib tuyulgan biologik tafovutni shubha ostiga qoʻydi, natijada xotin-qizlar va erkaklar ijtimoiy ahvolidagi farqni ularning jismoniy belgilari bilan izohlashga oʻrin qolmadi. Ikkinchi tomondan, shu narsa ayon boʻldiki, ayollarga doir konsepsiyalardagi farqlarga qaramay, har qanday jamiyatda ayollarga erkaklarga qaraganda pastroq “oʻrin” ajratilar ekan.

Jins va gender oʻrtasidagi farq Karin Xauzen tomonidan “jinslar xarakterlarini qarama-qarshi qoʻyishning salbiy oqibatlarini” sifatida ifodalangan⁸. Bu tarzda qarama-qarshi qoʻyish shunga olib keldiki, turli jinsiy vazifalar erkaklar va ayollar “tabiiy” xususiyatlarining ifodasi sifatida oʻrganildi va qonunlashtirildi. U, shuningdek, “tabiiy” jins erkaklar va ayollarga ajratilgan ijtimoiy vazifalar oʻrtasida bevosita sababli bogʻlanish mavjud degan fikrni ilgari surdi.

Gender farqlar va oʻxshashliklarni hisobga olgan holda tashkil etiladigan taʼlim jarayonida talabalarning ijtimoiy tajribasi aniq hisobga olinishi lozim. Genderni belgilashga nisbatan mavjud yondashuvlar va nuqtayi nazarlarning xilma-xilligiga qaramay, ikkita konsepsiyani ajratib koʻrsatish mumkin. Bu konsepsiyalar quyidagilardan iborat:

1. Genderning ijtimoiy tuzilishi nazariyasi.
2. Gender tizimi nazariyasi.

Taʼkidlash lozimki, gender munosabatlar tahlili mohiyatan jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, maʼnaviy, maʼrifiy sohalaridagi jinslararo munosabatlarining aniq manzarasini ifodalaydi.

Gender farqlar bilan bir qatorda, gender oʻxshashliklarni ham hisobga olgan holda taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Gender oʻxshashlik – talabalar orasidagi aqliy-intellektual, madaniy, maʼnaviy, ijtimoiy oʻxshashlik ifodasi. Talabalar orasidagi oʻxshashlik ularning oʻzaro hamkorligi jarayonida vujudga keladigan umumiy xususiyatlarning pedagogik-psixologik interiorizatsiyasiga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, gender jinsga bogʻliq emas, balki taʼlim-tarbiya, ijtimoiy muhit yordamida vujudga keladigan oʻxshashliklarga bogʻliq.

⁸ Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси: / рус тилидан қисқар. таржима. Олий ўқув юртлари учун. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2003. – 411 б.

Gender farqlar shuni ifodalaydiki, unda biologik o'ziga xoslik ijtimoiy-pedagogik mohiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarni ijtimoiy-pedagogik tasniflash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Jins – erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tashkil topgan modeli bo'lib, nafaqat ularning shaxslararo va oiladagi munosabatlarini tavsiflaydi, balki ularning jamiyat hayoti, ishlab chiqarish va ta'lim jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarini ham belgilaydi. Mazkur munosabatlar yorqinroq ifodalanishi uchun ta'lim jarayonida o'g'il va qiz talabalarining bir-biridan farq qilishini aniq tasavvur qilgan holda ularga ta'lim-tarbiya berishga erishish lozim. Gender dunyoqarashning rivojlanishi o'g'il va qiz talabalarining o'ziga xosligini farqlashga asoslanishi lozim.

Ta'lim jarayonida gender yondashuvga amal qilishining afzalligi shundaki, u o'quv sharoitida talabalar manfaatlarini hamda intellektual imkoniyatlarini hisobga olishga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik ta'sirlar talabalarining xatti-harakatlari va dunyoqarashlarida ijobiy o'ziga xoslik paydo bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida gender xoslikni ta'minlamasdan turib, intellektual-ma'naviy jihatdan rivojlangan shaxsni rivojlantirib bo'lmaydi. Bunday ta'lim tizimi talabalarining manfaatlarini ustuvorligi asosida tashkil etilishi kerak. Genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish zarurligini hisobga olgan holda o'quv jarayonini isloh qilish talabalarining erkin, intellektual, ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Gender yondashuvning ta'lim jarayonida qo'llanilishi, birinchidan, ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsata oladigan, ikkinchidan, jamiyat talabalariga mos keladigan ijodkor, tadbirkor, intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishga ko'maklashadi.

Yakuniy qism. Ta'lim jarayonida gender tenglik va farqlarni hisobga olish tamoyili ustuvor bo'lishi kerak. Bu ustuvorlikni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialini tanlashda psixologik sifatlardagi jinsiy farqlarga e'tibor berish;
- tayanch ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishda jinsiy farqlarni inobatga olgan holda, talabalarining alohida o'ziga xos faoliyatini rivojlantirish;

– har bir jinsning o'ziga xos faoliyat turini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv materiallarini tanlash;

– didaktik jihatdan rivojlangan gender interpretatsiyalarini qo'llashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni rivojlantirish.

Ta'lim jarayonida talabalarda tayanch ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni kasbga yo'naltirishning barqaror pedagogik tizimini vujudga keltirishda talabalarining gender jihatdan o'ziga xos bo'lgan shaxsiy sifatlarini qaror toptirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ta'lim jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

– talabalar orasidagi farqlarni neytrallashtirish va interpretatsiyalashga qaratilgan o'quv harakatlarini tashkil etish;

– ularni gender o'xshashlikni namoyon qilish ruhida tarbiyalash;

– o'quv jarayonida talabalarining alohida-alohida faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

– talabalarining shaxsiy qiziqishlariga muvofiq keladigan o'quv faoliyati turlarini tashkil etish;

– aniq o'quv vaziyatini hisobga olgan holda faoliyat ko'rsatishni ta'minlash.

Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muayyan asosi mehnat taqsimoti va jamiyatda qabul qilingan madaniy me'yorlar, ijtimoiy faoliyat turlari, ularning ijtimoiy mavqeyi orqali ifodalanadi. Ta'lim tizimida qabul qilingan gender me'yorlar va mezonlar muayyan darajada talabalarining biologik jinsiga qarab, ularning ruhiy sifatlari, qobiliyatlari, faoliyat turlari, egallaydigan kasblarini belgilashga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirish – bu talaba tomonidan o'zi yashaydigan jamiyat gender madaniy tizimining o'zlashtirilishi jarayoni. Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muhim belgilari sifatida talabalarni kasbga yo'naltirish, o'quv mehnatini to'g'ri taqsimlash, ularda gender xoslikka asoslangan shaxsiy sifatlarni qaror toptirishdan iborat.

Talabalarda muayyan jinsga mansubligidan qat'i nazar, individual qiziqishlar va qobiliyatlarni rivojlantirish zarur. Buning uchun pedagog, birinchi navbatda, gender sezgirlikka ega bo'lishi lozim. Bunda talabalarga gender ta'lim berish jarayonida gender metodikasini qo'llay olishi kerak.

Ta'limda gender o'lchov tushunchasi pedagoglarning ta'lim-tarbiya berish yo'lidagi

intilishlari natijasida talabalarning holati va rivojlanishi, o'zligini anglashi va kelajakda o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari, qaysi jinsga mansub bo'lishidan qat'i nazar, jamiyatdagi mavqeyini anglatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim jarayonida gender yondashuvni qo'llash talabalarni kelib chiqishidan qat'i nazar, ijtimoiy vazifalarini to'g'ri anglaydigan, jinslarning farqiga oid eski qarashlardan xoli o'ziga xos shaxs sifatida tarbiyalash va rivojlantirishga katta yordam beradi.

O'z ma'nosi jihatidan gender ta'lim-tarbiyaga yaqin bo'lgan "jinsiy ta'lim-tarbiya", "jinsiy-ijtimoiy ta'lim-tarbiya" kabi atamalar mazkur so'zning ma'nosini to'liq ifodalamaydi. Zero, bu atama mohiyati ancha keng va serqirradir.

Gender ta'lim berish asosida turli madaniyatlarga ochiq va moslashuvchan, hayotning barcha jabhalarida tinchliksevar, demokrat, tolerant, erkin tanlash huquqiga ega bo'lgan hamda o'zligini anglab yetgan yangi shaxsni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бовуар Де Симона. Второй пол. – Санкт-Петербург, 1997. 1999 // html:file://F:/enter/
2. Гидденс Энтони. Социология: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма / Тарж. Н.Маматов ва Ж.Бегматов. – Тошкент: Шарк, 2002. – 848 б. 39. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси: / рус тилидан қискар. таржима. Олий ўқув юртлари учун. –Тошкент, Ўзбекистон, 2003. – 411 б.
3. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси: / рус тилидан қискар. таржима. Олий ўқув юртлари учун. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2003. – 411 б.
4. Миллет К. Теория сексуальной политики // Вопросы философии. – Москва: 1994. – № 9. – С. 23-58.
5. Уэст К., Зиммерман Д. Создание гендера. Пер. с англ. Е.Здравомысловой /Гендерные тетради. Вып.1. – Санкт-Петербург, 1999 // mhtml:file://F:/enter/
6. Абдуллаева М.Н., Абдурашидов М., Абилов У. ва бошқ. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. Масъул муҳаррир: А.Жалолов. – Тошкент: Шарк, 2004. – 384 б.
7. Хоф Р. Возникновение и развитие гендерных исследований //Пол, тендер, культура /Под ред. Э.Шоре и К.Хайдер. – Москва, 1999. – С. 23-53 // www.lib.vsu.ru/project/golosary.phtml.
8. Ҳайдарова Х.Р. Фарзандларнинг ўз жинсини англаши // Халқ таълими –Тошкент, 2003. – № 2. – Б. 52-54.

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Razzakova N., Sobirova E.,
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

